



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA  
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA  
NORMATIVLARI**

---

**MAKTABDAN TASHQARI TA‘LIM MUASSASALARINI  
TASHKIL ETISH VA SAQLASH BO‘YICHA  
SANITARIYA QOIDALARI  
(“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR IJODIYOTI  
MARKAZLARI)**

**O‘zbekiston Respublikasining  
0307-13- sonli SanQvaM**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent – 2013**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA  
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA  
NORMATIVLARI**

---

**«TASDIQLAYMAN»**

**O‘zbekiston Respublikasining  
Davlat bosh sanitariya vrachi**

**\_\_\_\_\_ S. SAYDALIYEV**

**23-yanvar 2013-yil**

**MAKTABDAN TASHQARI TA‘LIM MUASSASALARINI  
TASHKIL ETISH VA SAQLASH BO‘YICHA  
SANITARIYA QOIDALARI  
(“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR IJODIYOTI  
MARKAZLARI)**

**O‘zbekiston Respublikasining  
0307-13- sonli SanQvaM**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent – 2013**

## **I. Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyenik normativlari (bundan buyon sanitariya qoidalari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyuldagi 657-XP-sonli "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 11-maydagi 130-sonli "Barkamol avlod bolalar markazlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-fevraldagi 50-sonli "Bolalar ijodiyoti uylari to'g'risidagi nizomni tayyorlash haqida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Sanitariya qoidalari "Barkamol avlod" bolalar markazlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini olib boruvchi sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari va muassasalari uchun mo'ljallangan.

1.3. Ushbu sanitariya qoidalari "Barkamol avlod" bolalar markazlarini loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish tartibiga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologiya talablarini belgilaydi. Ular bolalar xavfsizligi va salomatligini ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan majburiy talablarni, shuningdek "Barkamol avlod" bolalar markazlarining normal va samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi talablarni o'z ichiga oladi.

1.4. Yangi qurilgan yoki qayta ta'mirlangan "Barkamol avlod" bolalar markazlarini foydalanishga topshirish faqat sanitariya me'yorlari, qoidalari va gigiyenik normativlarga to'liq rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

1.5. "Barkamol avlod" markazlari hududida uyali aloqa tizimini o'rnatish taqiqlanadi.

1.6. Ushbu sanitariya normalariga rioya qilinishi uchun mas'uliyat "Barkamol avlod" markazi rahbariga yuklatiladi.

## **II. "Barkamol avlod" bolalar markazlarini loyihalashtirish va qurishga qo'yiladigan gigiyenik talablar**

### **A) Yer uchastkasiga qo'yiladigan talablar:**

2.1. "Barkamol avlod" bolalar markazlarini loyihalash O'zbekiston Respublikasi hududining qurilish-iqlimiy zonalashtirish bo'yicha QMQ 2.01.01-94 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizik-geologik ma'lumotlar"ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

2.2. "Barkamol avlod" bolalar markazlari yer uchastkalarini joylashtirish va tashkil etish SHIK 2.07.01-03 talablariga muvofiq bosh reja yoki qurilish loyihalariga asosan amalga oshirilishi kerak. "Barkamol avlod" bolalar markazlari hududidan shahar (qishloq) ahamiyatidagi magistral muhandislik

kommunikatsiyalari, elektr uzatish liniyalari o'tkazilmasligi hamda transformator podstansiyalari va uyali aloqa stansiyalari o'rnatilmasligi lozim.

2.3. Bolalar markazi binolari magistral ko'chalarning qizil chizig'idan kamida 25 metr, qishloq aholi punktlarida esa turar-joy binolaridagi ko'chalardan kamida 10 metr masofada alohida ajratilgan yer uchastkalarida joylashtirilishi kerak. "Barkamol avlod" bolalar markazlarining yer uchastkalari maydonlari bir o'quvchiga hisoblangan sig'im asosida belgilanadi: 50 dan 300 nafargacha o'quvchi uchun - 50-55 kvadrat metr.

2.4. O'quv markazi binosini joylashtirish chog'ida asosiy xonalarning quyosh nuri tushishi va shovqindan himoyalinishiga qo'yiladigan me'yoriy talablarni hisobga olish lozim. Yer maydonlarida quyidagi funksional hududlar nazarda tutilishi kerak:

a) 0,15-0,4 gektar o'quv-tajriba hududi (sabzavot, dala va manzarali ekinlar, zoologiya, meteorologiya va geografiya maydonchalarini o'z ichiga oladi);

b) 0,15-0,5 gektar maydonli dam olish va attraksionlar hududi, unda tinch va harakatli o'yinlar uchun maydonchalar joylashadi;

v) 0,05-0,1 gektar maydonli xo'jalik maydoni, maydoni kamida 3 kv.m bo'lgan betonlangan maydonlardagi axlat yig'gichlar, asosiy binodan kamida 25 metr uzoqlikda joylashtiriladi;

g) yashil hudud maktabdan tashqari ta'lim muassasasi hududining kamida 50 foizini tashkil etishi shart.

2.5. Yer maydonlarida yong'in o'chirish mashinalari uchun bino atrofida aylanib o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan kirish yo'llari ko'zda tutilishi lozim.

2.6. Tashqi hojatxonalar sanitar-gigiyenik talablarga muvofiq hisoblanadi va bino derazalaridan kamida 25 metr uzoqlikda joylashtiriladi. Sanitariya jihozlari soni 20 ta qiz bolaga 1 hojatxona teshigi, 30 ta o'g'il bolaga 1 hojatxona teshigi va 1 ta pissuar hisobidan aniqlanadi. O'g'il va qiz bolalar uchun sanitariya uzellarining maydoni har bir o'quvchiga kamida 0,1 kv.m hisobidan belgilanishi kerak. Hojatxonalarda qo'l yuvgichli tamburlar, o'qituvchilar va xodimlar uchun alohida kirish joylari bo'lishi shart.

2.7. "Barkamol avlod" o'quv markazi hududi butun perimetri bo'ylab to'siq bilan o'ralgan bo'lishi kerak. To'siq turi loyihalash topshirig'ida belgilanadi.

### **B) Asosiy xonalarning hajmiy-rejaviy yechimlariga qo'yiladigan talablar:**

2.8. "Barkamol avlod" bolalar markazlari xonalarining tarkibi va maydonlari funksional tashkiliy-pedagogik talablardan kelib chiqqan holda, o'quv rejasini hisobga olgan holda hamda sanitariya va qurilish me'yorlari va qoidalari talablariga muvofiq hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadi.

2.9. “Barkamol avlod” bolalar markazi binolari hajmiy-rejaviy tuzilishiga qo‘yiladigan quyidagi talablarni hisobga olgan holda loyihalaniishi lozim:

a) to‘garak xonalarida bir shug‘ullanuvchiga 2 m<sup>2</sup>dan 4 m<sup>2</sup>gacha, lekin kamida 30 m<sup>2</sup> hisobidan maydon ajratilishi kerak. Ustaxonalarda bitta shug‘ullanuvchiga 4 m<sup>2</sup>dan, lekin kamida 60 m<sup>2</sup> maydon to‘g‘ri kelishi lozim. Har bir studiya xonasi va o‘qituvchi bilan yakka tartibdagi mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan sinflar maydoni 16-18 m<sup>2</sup> bo‘lishi kerak;

b) ustaxonalar va o‘quv xonalari balandligi kamida 3 m bo‘lishi shart;

v) bolalar birlashmalari mashg‘ulotlari uchun xonalarni qavatlar bo‘yicha joylashtirishda ularning funksional vazifasini hisobga olish zarur;

g) yirik o‘lchamli yoki dastgohli uskunalar bilan jihozlangan haykaltaroshlik, kulolchilik, texnik ijodkorlik ustaxonalarini devor va to‘siqlarni qurishda shovqindan himoyalovchi materiallardan foydalangan holda birinchi qavatda joylashtirish maqsadga muvofiqdir;

d) binolarning yuqori qavatlarida kimyo-texnika, astronomiya xonalari va rassomchilik ustaxonalari joylashtirilishi lozim;

e) dastgohlar orasidagi masofa va o‘tish joylari xavfsizlik texnikasi talablariga to‘liq javob berishi shart;

f) kompyuter xonalarni tashkil etishda kompyuter sinflariga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga qat’iy rioya qilish zarur.

2.10. “Barkamol avlod” bolalar markazi muassasalarining xonalari binolarning yer usti qavatlarida joylashtirilishi lozim. Bolalar turadigan xonalarni texnik yerto‘lalarda va boshqa shunga o‘xshash joylarda joylashtirish taqiqlanadi.

2.11. Har bir qavatda o‘g‘il va qiz bolalar uchun alohida, kabinalar bilan jihozlangan hojatxonalar bo‘lishi kerak. Sanitariya jihozlarning umumiy soni quyidagicha hisoblanadi: 20 ta qizga 1 ta hojatxona, 30 ta qizga 1 ta qo‘l yuvgich; 30 ta o‘g‘il bolaga 1 ta hojatxona, 1 ta pissuar va 1 ta qo‘l yuvgich. Xodimlar uchun 20 kishiga 1 ta hojatxona hisobidan alohida hojatxona ajratiladi.

### **III. “Barkamol avlod” bolalar markazlarining asosiy xonalari**

#### **A) Texnik ijodkorlik:**

**“Boshlang‘ich texnik modellashtirish”, “Yosh konstruktor va ixtirochi”  
(aviatsiya, avtomobil, raketa va kema modellashtirish),**

#### **“Radiotexnika va aloqa” to‘garaklari**

3.1. Texnik ijodkorlik mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘smirlarning kasbiy ta’limi va mehnati uchun ruxsat etilgan ish turlarining gigiyenik mezonlariga rioya qilish zarur.

3.2. Modellashtirish xonalari va laboratoriyalari davlat standartlari talablariga muvofiq stol va stullar bilan jihozlanadi.

3.3. Texnik ijod ustaxonalari eni kamida 390 mm va balandligi kamida 325 mm bo'lgan himoya ekraniga ega chilangarlik dastgohlari bilan jihozlanadi. Dastgohlar o'ng tomondan yoritilganda derazalarga perpendikulyar joylashtirilishi kerak. Dastgohlar orasidagi masofa kamida 100 sm bo'lishi lozim.

3.4. Tokarlik dastgohlari derazalarga parallel yoki 20-30° burchak ostida, frezerlik dastgohlari esa individual yoritilgan holda derazalarga parallel o'rnatilishi lozim. Elektr dvigatellari himoya to'ri bilan o'ralgan bo'lishi shart.

3.5. Kavsharlash amalga oshiriladigan stol va dastgohlar kyuvetli, metall qoplamali, mahalliy so'ruvchi shamollatish tizimi va yoritgichlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

3.6. Asbob-uskunalar ro'yxati "Barkamol avlod bolalar ijodiyoti markazlarini jihozlash me'yorlari"ga to'liq muvofiq bo'lishi lozim.

3.7. Turli yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan duradgorlik va chilangarlik asboblari ro'yxati ilovada keltirilgan.

#### **B) "Kompyuter dizayni va grafikasi", "Yosh dasturchi", "Yosh foto va kinohavaskor" to'garaklari**

3.8. "Kompyuter dizayni va grafikasi", "Yosh dasturchi", "Yosh foto va kinohavaskor" to'garaklari uchun mo'ljallangan xonalar ikkinchi qavatda joylashishi va ruxsatsiz kirishdan himoyalangan (qo'riqlash signalizatsiyasi, temir eshiklar o'rnatilgan) bo'lishi shart.

3.9. Elektromagnit to'siqlardan, ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan, o'ta yuqori va past haroratlardan, tebranishdan, shovqin bosimidan va shunga o'xshash ta'sirlardan himoyani talab qiladigan xonalarni tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq loyihalash zarur.

#### **V) Badiiy ijodiyot to'garaklari ("Kulolchilik", "Chekanka", "Duradgorlik", "Yosh rassom" va "Mayda plastika")**

3.10. O'quv-ishlab chiqarish xonalarini birinchi qavatda va binolarning yon qismlarida joylashtirish tavsiya etiladi. Bunda yog'ochga ishlov berish ustaxonasidan bevosita tashqariga yoki ustaxonaga tutashgan yo'lak orqali chiqish imkoniyatini nazarda tutish lozim.

3.11. O'quv ustaxonalari xonalarining maydoni texnologik jarayonning tashkil etilishi va jihozlarning turiga qarab 1 o'quv ish o'rniga o'rtacha 5-7 m<sup>2</sup> hisobida rejalashtiriladi.

3.12. Asbob-uskunalar ro'yxati bajariladigan ishlar turiga mos bo'lishi lozim.

**G) “Qo‘l hunar” (bichish-tikish, to‘qish, munchoqbozlik), “Yumshoq o‘yinchoqlar”, “Gilamdo‘zlik” va “Do‘ppi” to‘garaklari.**

3.13. “Qo‘l hunar” mashg‘ulotlari uchun xonalar va ustaxonalar davlat standartlari talablariga muvofiq maxsus tikuv jihozlari bilan jihozlanadi.

3.14. Tikuv mashinalari derazalarga parallel o‘rnatilishi va alohida yoritgichlar bilan ta‘minlanishi kerak.

**D) “Yosh o‘simlikshunos” va “Yosh zoolog” to‘garaklari**

3.15. Bolalarning hayvonlar va o‘simliklar bilan ishlashi uchun mo‘ljallangan xonalarni o‘quv-tajriba hududiga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiq.

3.16. Hayvonlarni parvarish qiluvchi bolalarga hayvonlar bilan xavfsiz muomala qilish va birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari bo‘yicha yo‘riqnomaga o‘tkazilishi shart. Bolalar mashg‘ulot paytida maxsus kiyimda bo‘lishlari kerak. Hayvonlar ustidan doimiy veterinariya nazorati o‘rnatilishi va mas‘ul xodim biriktirilishi lozim.

**IV. Yoritishga qo‘yiladigan talablar**

4.1. Xonalar QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” va mazkur SanQvaM talablariga javob beradigan tabiiy va sun‘iy yoritish bilan ta‘minlanishi kerak.

4.2. Jihozlar joylashtirilgan o‘quv va o‘quv-ishlab chiqarish xonalarida o‘quv (ish) joylarining chap tomondan tabiiy yorug‘lik bilan ta‘minlanishi zarur.

4.3. Tabiiy yorug‘liksiz omborxonalar, omborlar, kino-fotolaboratoriyalar, dushxonalar va yerto‘la xonalarini loyihalash mumkin.

4.4. O‘quv xonalarining yorug‘lik tushiradigan oynalari jalyuzi tipidagi quyoshdan himoyalovchi moslamalar yoki och rangli mato pardalar bilan jihozlanishi kerak.

4.5. Derazalarning qorong‘ilashuvini oldini olish va xonalarda tabiiy yorug‘likni kamaytirmaslik uchun daraxtlarni binodan kamida 10 metr, butalarni esa 5 metr masofada ekish lozim.

4.6. O‘quvchilarning ish joylarida lyuminessent yoki quvvat tejoychi lampalar bilan ta‘minlangan umumiy yoritilganlik darajasi quyidagilardan kam bo‘lmasligi kerak:

nazariy mashg‘ulotlar uchun o‘quv xonalari - 300 lyuks

kompyuter xonalari - 300-500 lyuks

metallga ishlov berish ustaxonalari - 200 lyuks

yog‘ochga ishlov berish ustaxonalari - 200 lyuks

tikuvchilik ustaxonalari - 400 lyuks

tasviriy san‘at studiyalari, rangtasvir, chizmachilik, haykaltaroshlik xonalari - 400 lyuks

dam olish joylari, yo‘laklar - 150 lyuks

yosh tabiatshunoslar mashg‘ulotlari uchun xonalar - 300 lyuks

hojatxona va dushxonalar - 75 lyuks

zinapoyalar - 100 lyuks

ovqatlanish zallari, bufetlar - 200 lyuks

tun vaqtida hududning yoritilganligi - 10 lyuks

4.7. Umumiy yoritish chiroqlarini yiliga kamida 2 marta tozalash va kuygan lampalarni o‘z vaqtida almashtirish lozim. O‘quvchilarni bu ishga jalb etish qat’iyan man etiladi.

4.8. O‘quv xonalariga shovqinsiz ishga tushirish-rostlash qurilmalariga ega bo‘lgan yoritgichlar o‘rnatilishi kerak.

4.9. Lyuminessent yoritish tizimida sinf doskasini yoritish uchun maxsus to‘g‘ridan-to‘g‘ri yorug‘lik beruvchi chiroqlarni ko‘zda tutish, cho‘g‘lanma lampalar bilan yoritishda esa umumiy yoritish tizimiga qo‘shimcha chiroq o‘rnatish tavsiya etiladi.

4.10. Vestibyullar, yo‘laklar, dam olish xonalari, zinapoyalar, shuningdek ustaxonalarda favqulodda yoritish tizimi bo‘lishi shart.

4.11. Tashqi yoritishni binoning asosiy kirish qismi oldida, bloklar va alohida binolarga kirishda hamda xo‘jalik hovlisida o‘rnatish lozim.

## **V. Sanitariya-texnik qurilmalarga qo‘yiladigan talablar**

5.1. “Barkamol avlod” bolalar markazi binosi xo‘jalik-ichimlik suv ta‘minoti, oqava suv tizimi, issiq suv ta‘minoti, isitish va shamollatish, elektr ta‘minoti bilan jihozlanishi, mahalliy sharoitlarga qarab esa gaz ta‘minoti va telefon aloqasi bilan ta‘minlanishi lozim.

5.2. Isitish quvurlarini ochiq holda o‘tkazish kerak.

### **Isitish va shamollatish**

5.3. “Barkamol avlod” bolalar markazi binolarining isitish va shamollatish tizimlarini QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish, havo moslash” talablari hamda ushbu bobning 5.4-5.8-bandlarida keltirilgan ko‘rsatmalarga muvofiq loyihalashtirish lozim.

5.4. “Barkamol avlod” bolalar markazlarini issiqlik bilan ta‘minlashni, odatda, issiqlik elektr markazlari, shahar yoki tuman qozonxonalarining issiqlik tarmoqlaridan amalga oshirish kerak. Tashqi issiqlik manbai mavjud bo‘lmagan hollarda, tegishli texnik-iqtisodiy va sanitariya-gigiyena jihatdan asoslangan taqdirda, mahalliy qozonxona qurishga ruxsat etiladi.

5.5. O‘quv xonalari va ustaxonalardagi isitish asboblari ulangan isitish quvurlari shunday loyihalanishi kerakki, isitish asboblarning issiqlik berishini boshqaruvchi avtomatik qurilmalarni markazlashgan holda o‘chirish va o‘rnatish imkoniyati bo‘lsin.

5.6. Isitish tizimlarining isitish asboblari silliq yuzaga ega bo‘lishi va derazalar

ostiga joylashtirilishi lozim. Yuqori sanitariya-gigiyena talablari qo‘yiladigan obyekt sifatida po‘lat konvektorlarni qo‘llash man etiladi.

5.7. O‘quv xonalari, ustaxona va laboratoriyalardagi ventilyatsiyani ortiqcha issiqlik, namlik va karbonat angidrid gazini yo‘qotishga mo‘ljallab hisoblash kerak, bunda xona ichidagi havo harorati 17-22°C oralig‘ida, namligi 30-60% oralig‘ida va CO<sub>2</sub> miqdori 1 mg/m<sup>3</sup> gacha bo‘lishi ta‘minlanishi lozim. Bu xonalarni shamollatish uchun quyidagi qurilmalarni qo‘llash tavsiya etiladi:

isitilmagan havoni xona devorlaridagi mo‘ri teshiklari orqali tabiiy ravishda so‘rib olinadigan yuqori qismga (ship ostiga) fortochkalar orqali markazlashmagan tarzda yetkazib berish. So‘ruvchi shkafli va mahalliy so‘rg‘ichli xonalar uchun mexanik qo‘zg‘atishli so‘ruvchi ventilyatsiyani ko‘zda tutish zarur.

5.8. Asosiy xonalar va ustaxonalarda havo harorati 1-jadval ko‘rsatkichlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

**1-jadval.**

**Asosiy xonalardagi havo haroratining talab qilinadigan ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Xonalar</b>	<b>Havo harorati, °C</b>
1	O‘quv xonalari	20
2	O‘quv ustaxonalari	18
3	Laboratoriyalar	20
4	To‘garak xonalari	20
5	Sanitariya xonalari	16
6	Vestibyul	16
7	Ma‘muriy kabinetlar	20

**Suv ta‘minoti va kanalizatsiya**

5.9. “Barkamol avlod” bolalar markazi binolarida suv ta‘minoti va kanalizatsiyani QMQ 2.04.01-98 “Binoning ichki suv quvuri, kanalizatsiyasi” hamda ushbu bobning 5.10-5.13-bandlarida keltirilgan ko‘rsatmalarga asoslanib loyihalashtirish lozim.

5.10. “Barkamol avlod” bolalar markazining ichki sovuq va issiq suv ta‘minoti tizimlarini qurishda, loyihalash topshirig‘iga muvofiq, asosiy xonalarda, tozalash anjomlarini saqlash xonalarda, dushxonalarda, hojatxonalarda, ustaxonalarda o‘rnatiladigan yuvgichlar, rakovinalar yoki qo‘l yuvgichlarga, shuningdek boshqa xonalardagi asbob-uskunalarga sovuq va issiq suv yetkazib berishni ko‘zda tutish kerak.

5.11. Suv olish nuqtalaridagi issiq suv harorati, issiqlik ta‘minoti tizimlaridan qat‘i nazar, 50°C dan past va 75°C dan yuqori bo‘lmasligi lozim.

5.12. Kanalizatsiyalashtirilmagan hududlarda ichki suv ta‘minoti tizimlarini

qurishda mahalliy tozalash inshootlari yoki chiqindi yig'ish xandaqlari bo'lgan ichki kanalizatsiya tizimlarini nazarda tutish zarur. Ichki kanalizatsiya tizimlari mavjud bo'lmagan hollarda binoda ichki suv ta'minoti qurilmasiga ruxsat etilmaydi.

## **VI. Pardoqlash materiallariga qo'yiladigan talablar**

6.1. Devorlarni terish uchun qurilish materialini tanlashda ularning qalinligi hisobga olinib, issiqlik uzatish koeffitsiyenti va issiqlikka chidamliligi aniqlanadi. O'quv xonalari va ma'muriy xonalarning pollari taxtadan bo'lishi shart.

6.2. Hojatxona va dushxonalarda orayopmalarning suv o'tkazmasligini ta'minlash maqsadida pollarni keramik plitkalar bilan qoplash ko'zda tutiladi.

6.3. Dushxona va hojatxonalarining devorlari, shuningdek, yuvgichlar o'rnatilgan joylar keramik plitkalar bilan qoplanadi (dushxona va hojatxonalarda 1,8 m balandlikkacha, yuvgich oldida esa fartuk shaklida 1 m balandlikkacha).

6.4. Barcha xonalardagi derazalar konstruksiyasida tabiiy shamollatishni ta'minlash uchun framugalar va fortochkalar nazarda tutiladi. Deraza romlari kerakli holatda o'rnatish uchun moslamalar bilan jihozlanib, ularni ochish oson boshqariladigan bo'lishi lozim.

6.5. O'quv xonalarida devorlarni pardoqlash uchun yelimli bo'yoq bilan sifatli suvoq qilish maqsadga muvofiqdir.

Zarur hollarda, 1,2 m balandlikkacha bo'lgan panellar och rangli moyli bo'yoq bilan bo'yaladi.

6.6. Shift, eshiklar, deraza tokchalari va derazalar oq rangda bo'lishi shart. Pol esa sariq yoki och jigarrang bo'lishi kerak.

## **VII. Bolalar faoliyati rejimiga qo'yiladigan talablar**

7.1. O'quv-tarbiya jarayoni rejimi (mashg'ulotlar jadvali) sanitariya-gigiyena xulosasiga ega bo'lishi shart.

7.2. "Barkamol avlod" bolalar qo'shimcha ta'lim markazlari muassasalaridagi mashg'ulotlar jadvali, ular bolalar va o'smirlarning umumta'lim muassasalaridagi majburiy o'quv ishlariga qo'shimcha yuklama ekanligini hisobga olgan holda tuziladi. Shu sababli quyidagi gigiyena talablariga rioya etilishi zarur:

7.2.1. Umumta'lim muassasasidagi mashg'ulotlar (ta'lim olish turidan qat'i nazar) va bolalarning "Barkamol avlod" markazi muassasasiga borishi o'rtasida dam olish uchun kamida bir soatlik tanaffus bo'lishi lozim.

7.2.2. "Barkamol avlod" markazi muassasalarida mashg'ulotlar soat 8:00 dan erta boshlanmasligi va soat 20:00 dan kech tugamasligi kerak.

7.2.3. "Barkamol avlod" markazi muassasalarida bolalar mashg'ulotlari haftaning istalgan kunida, jumladan yakshanba va ta'til kunlarida ham o'tkazilishi mumkin.

7.2.4. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida bolalar mashg'ulotlarining davomiyligi o'quv kunlarida, odatda, 1,5 soatdan, dam olish va ta'til kunlarida esa

3 soatdan oshmasligi lozim. 30-45 daqiqalik mashgʻulotlardan soʻng bolalarning dam olishi va xonalarni shamollatish uchun kamida 10 daqiqalik tanaffus qilish zarur.

7.2.5. Kompyuter texnikasidan foydalangan holda mashgʻulotlar Oʻzbekiston Respublikasi oʻquv-tarbiya muassasalarida kompyuter sinflarining tuzilishi, jihozlanishi, mazmuni va ish rejimining sanitariya qoidalari SanQvaM 0303-12 ga muvofiq oʻtkaziladi.

7.3. “Barkamol avlod” markazi muassasalarida mashgʻulotlar ikki smenada boʻlganda, kun oʻrtasida xonalarni tozalash va shamollatish uchun smenalar orasida 1-2 soatlik tanaffus qilish zarur.

### **VIII. Hudud va xonalarning sanitariya holati hamda ularni saqlashga qoʻyiladigan talablar**

8.1. “Barkamol avlod” bolalar markazlari muassasalarida muntazam ravishda sanitariya tozalash, yigʻishtirish va profilaktik dezinfeksiya ishlari olib borilishi shart.

Muassasa 2 smenada ishlaganda tozalash ikki marta: smenalar orasida va ish kuni oxirida oʻtkazilishi kerak. Barcha xonalarda belgilangan tartibda foydalanishga ruxsat etilgan soda, sovun, sintetik yuvish vositalari va dezinfeksiyalovchi moddalardan foydalangan holda har kuni nam tozalash ishlari amalga oshirilishi lozim.

Har oyda bir marta yuvish va dezinfeksiyalash vositalaridan foydalangan holda umumiy tozalash ishlarini oʻtkazish lozim.

Derazalar va deraza oʻrinlari tashqaridan va ichkaridan yiliga kamida 3 marta (bahorda, yozda, kuzda) yuvilishi kerak.

8.2. Umumiy foydalanish joylari (bufet, hojatxona, dushxonalar) dezinfeksiyalovchi vositalardan foydalangan holda doimiy ravishda tozalanib turilishi shart.

8.3. Hojatxonalarda xona va sanitar-texnik jihozlar dezinfeksiya qilinishi lozim. Unitaz oʻrindiqlari iliq sovunli suv bilan yuvilishi kerak. Umivalnik va unitazlarni kvachlar yoki choʻtkalar yordamida tozalovchi va dezinfeksiyalovchi vositalar bilan tozalash zarur.

Ishlatilgan kvachlar va yigʻish materiallari 0,5% li kalsiy gipoxlorid eritmasi yoki 1% li xlorli ohak eritmasiga 30 daqiqaga botirib qoʻyiladi, soʻngra chayiladi va quritiladi. Toza kvachlar va tozalash anjomlarini xoʻjalik shkafida yoki tozalash anjomlariga ishlov berish va saqlash uchun moʻljallangan xonada maxsus belgilangan idishlarda saqlash lozim.

Hojatxonalarda pedalli chelaklar, hojatxona qog‘ozi, sovun (afzali dozatorli suyuq sovun), qo‘l quritgich yoki bir martalik salftkalar, qo‘llarni artish uchun sochiqlar bo‘lishi shart.

8.4. Dushxonalarda har kuni tozalash va dezinfeksiya o‘tkazilishi kerak (xonalar, jihozlar - o‘rindiqlar, shkafchalar, rezina gilamchalar).

Dushxonalarda shaxsiy poyabzal, sovun va mochalkadan foydalanish zarur.

8.5. “Barkamol avlod” bolalar markazlari muassasalarida tozalash anjomlariga ishlov berish va saqlash, yuvish va dezinfeksiyalash vositalarini tayyorlash uchun alohida xonalar nazarda tutilishi kerak.

8.6. Tirik tabiat burchaklari xonalarida har kuni nam tozalash ishlari o‘tkazilishi, qafaslar va oxurlar tozalanishi, to‘shamalar almashtirilishi, suvdonlar yuvilishi va suv yangilanishi shart.

Har ikki haftada qafaslar, oxurlar va suvdonlar 3% li xloramin eritmasi bilan dezinfeksiya qilinib, keyin oqar suvda yaxshilab yuvilishi va quritilishi lozim. Shundan so‘ng qafasga yangi toza to‘shama solinib, ozuqa berilishi mumkin.

8.7. Hudud maydonida har kuni tozalash ishlari olib borilishi kerak. Chiqindilar qopqog‘i yopiladigan metall axlat idishlariga yig‘ilishi lozim. Axlat idishlar hajmining 2/3 qismi to‘lganda bo‘shatilishi kerak. Chiqindi idishlar bo‘shatilgandan so‘ng, albatta dezinfeksiya qilinishi shart.

## **IX. Muassasa rahbarining majburiyatlari**

9.1. “Barkamol avlod” bolalar markazlari rahbari quyidagilarni tashkil etadi va ta‘minlaydi:

xonalarni zarur jihozlar, inventarlar, qo‘l ostidagi materiallar va boshqa kerakli narsalar bilan ta‘minlash;

xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

muassasada ushbu sanitariya qoidalari va me‘yorlarining mavjudligini hamda ularning mazmuni barcha xodimlarga yetkazilishini ta‘minlash;

muassasaning barcha xodimlari tomonidan sanitariya qoidalari va me‘yorlari talablarining so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash;

kasbiy gigiyenik tayyorgarlikdan va attestatsiyadan o‘tgan, sog‘lig‘i bo‘yicha ruxsatnomaga ega bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilish;

barcha xodimlarning belgilangan tartibda dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklardan o‘z vaqtida o‘tishini nazorat qilish;

har bir xodim uchun shaxsiy tibbiy ko‘rik daftarchalarining mavjudligini ta‘minlash;

davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari va muassasalarining qarorlari, ko‘rsatmalarini bajarish;

amaldagi qonunchilik, sanitariya qoidalari va gigiyena me‘yorlariga muvofiq xodimlarning mehnat sharoitlarini ta‘minlash;

muassasaning sanitariya-texnik, texnologik va boshqa jihozlarining samarali ishlashini ta'minlash;

dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini tashkil etish;

birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun dori qutilari mavjudligi va ularning o'z vaqtida to'ldirilishini nazorat qilish;

Asboblar	O'quvchilar yoshi (yil)	
	10-12	13-15
	№ 1 (mm)	№ 2 (mm)
<b>Yoysimon arra</b>		
Tig' uzunligi	500	550
Tishlar orasi	3,5-4,0	4,0-5,0
Arra ramkasi:		
Balandligi	280	300
Ushlanadigan joyning kesimi	28x14	30x15
<b>Duradgorlik arrasi</b>		
Tig' uzunligi	280-300	320-350
Tishlar orasi	5,0	5,0
Dasta (prizma shaklida)		
Uzunligi	80	90
Tig' tomondagi kengligi	13	15
Kaft tomondagi kengligi	20	24
Yon tomonning kengligi	29	31
<b>Randa</b>		
Uzunligi	210	244
Kengligi	48	56
Metall taglik		
Uzunligi	220	250
Kengligi	47	52
Tig'		
Uzunligi	140	180
Kengligi	30-40	40
<b>Sherxebel</b>		
Taglik:		
Uzunligi	220	250
Kengligi	38	45
Tig'		
Uzunligi	140	180

Kengligi	25	30
<b>Duradgorlik bolg'asi</b>		
Og'irligi (g)	200	300
Dastaning ushlanadigan joyidagi kesimi	26x20	28x22
<b>Qo'pol egov</b>		
Umumiy uzunligi	200	250
Dasta		
Uzunligi	112	120
Dastaning eng yo'g'on qismining diametri	31,5	34
<b>Ombur</b>		
Umumiy uzunligi	150	180
Dastalar uzunligi	125	150
Ushlanadigan joydagi dastalarning tashqi tomonlari orasidagi masofa	27	27
<b>Qo'pol va mayda egovlar</b>		
Umumiy uzunligi	200	250
Dasta		
Uzunligi	112	120
Dastaning eng yo'g'on qismining uzunligi	31,5	34,0
<b>Chilangarlik arrasi</b>		
Tig' uzunligi	-	275
Dasta		
Uzunligi	-	120
Dastaning eng yo'g'on qismining diametri	-	34,0
<b>Chilangarlik bolg'asi</b>		
Og'irligi (g)	300	400
Uzunligi	280-300	300-320
Dastaning ushlanadigan joyidagi kesimi	26x20	28x22
<b>Metall qaychi</b>		
Kesuvchi qismining uzunligi	60	